

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2022-5/3

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2022

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бектўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Таҳрир хайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Абдуллаев Баҳром Исмоилов, ф-м.ф.д.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилов, и.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилов, с.ф.д., проф.</i>
<i>Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Сотинов Гойипназар, к/х.ф.д., проф.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинов, б.ф.д., академик</i>
<i>Буриев Хасан Чўтбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i>
<i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отабоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, к/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бектўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	<i>Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д., проф.</i>
<i>Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>	
<i>Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.</i>	
<i>Рўзбоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.</i>	
<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№5/3 (89), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 206 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2022

МУНДАРИЖА ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Adambaeva F.R. Biotechnological terms in english and their structural features	5
Ahmedov H. "Lisonut - tayr" dostonida g'am so'zining badiiy talqini	7
Eshqurbonova A.B. Dialogik nutqda noverbal vositalarning ifodalanishi	9
Habibova M.N. Letter tradition and epistolary novel in world literature	11
Hamdamov U.H. "Qisasi Rabg'uziy" asarida xalq og'zaki ijodining poetik ifodalanishi	15
Ibodullayeva G.J., Soatmurodova Sh.Z. The translation problems of business terms in the sphere of communication from English into Uzbek	17
Ismailov I.O. Ogahiyning tarixiy-adabiy asarlarida iqtibos san'atidan foydalanish mahorati	18
Jumaniyazova S.Z., Kenjayeva U.O. Til birliklarning leksik-semantik ma'no munosabatlari	22
Karimova Yu.B. Badiiy asarda poetik tafakkur va uslub masalasi	24
Ma'diyeva A.D. Modern she'riyat va unda an'anaviy obrazlar poetikasi	26
Matquliyeva M.F. Qo'zi Davlat she'rlarida badiiy tasvir vositalarining ishlatilishi	28
Normamatov S. Jadid davri lug'atchiligi shakllanishidagi ijtimoiy zarurat va omillar	30
Nurullayeva Z.H. Socio-cultural facilities of the «burhoni qote»	34
Pardayev A.A. Jek Londonning "Snarkdagi sarguzashtlar" fantastik hikoyasining xususiyatlari	36
Pirnazarova M.M. Adabiy-tarixiy talqinda uslubiy jihatlar	38
Qodirova X.M. Xorazm shevalarida antroponimlar asosida shakllangan ayrim laqablar	40
Radjapova N.B. The role of the course "Fundamentals of rhetoric and culture of speech" in the comprehensive training of foreigners russian language	42
Radjapova U. Arab lug'atchilik tamoyillarining "Lahjatul-l-lug'ot"da aks etishi	45
Ro'zmatova D.R., Begimqulova Sh.A. Emi Tanning "Omad va baxtiyorlik klubi" asarida avlodlar nizosi tasviri	47
Sabirova B.U. Pragmalingvistik termin "antroposentrism" va "paradigma"ning leksik-semantik tahlili	49
Sapayeva B.R., Sapabayeva G.M. Tilshunoslikda taksis hodisasi to'g'risidagi lingvistik nazariyalar	52
Shamsiddinova Z. Hozirgi Xitoy tilida vaqtni ifodalovchi lokativlar haqida	54
Sharipova F.D. Matn deyksisi va uning umumiy aspektlari	57
Sultanova D.A. The category of typological modality in Uzbek and English languages	59
Tursunova S.S. Judicial discourse as a concept of Forensic linguistics	61
Xalliyev J.I. Ogahiyning tarixiy asarlarida tasavvufiy hayot bilan bog'liq falsafiy-ma'rifiy atamalar	63
Xolmuratov I. Sheva leksikasida diolektalizmlar va unlarni alla matnlarida aks etishi	65
Абдуллаева Ш.Д., Джаббаров Ю.А. Проблематика словообразовательного значения в современном русском языке	68
Абсаламова Г.Ш. Мишел Монтен "Тажрибалар" асарида "Инсонпарварлик" тарбиясидаги лексемаларнинг парадигматик таҳлили	71
Алимова Ш.М. Хоразм кичик шевалари таджикда мумтоз лугатлар ўрни	73
Атаханова В.Р. "Китоби дадам кўрқут" асаридаги мифологик ҳамоҳангликлар	76
Атканова С.А. Фразеологизмы как средства отражения национальной культуры в медиатексте	79
Аширбаева Д.Р. Мурожат бирликларида коннотациянинг ифодаланиш усуллари	82
Гафуров Б.З. Исследование имён собственных и нарицательных в текстах рекламы медицинских услуг и фармацевтических продуктов	85
Давлатов К.К. Француз тилидаги анималистик фразеологизмлар таснифи	88
Джураева З.Р. Транскультурация в эссе Х.Л.Борхеса «Симург и орел»	91
Игамуратова Д.Ч. Таржимада фразеологизмлар орқали ёш бола характери акс эттириш	93
Исакова Г.Н. Қанотли сўзларни актуаллаштириш усули борасида	98
Исмаилова М.Н., Мирзаева К.Т. Семантизация многозначных и однозначных слов с префиксоидом "авто"	101
Иусупова Қ. "Уммондаги ороллар" романи бош қаҳрамони психологияси	102
Козиева И.К. Лексико-семантические особенности антропонимов узбекского и русского языков	106
Кудратова М.С., Мирзаева К.Т. Этимология некоторых слов русскоязычных газет Узбекистана, зарегистрированных в реестровой книге ЮНЕСКО	107
Мусаева Ш.Қ. Носир Ғозилов асарларида кўчма образлар	110
Мухамедова Л.Дж. Инглиз тилидаги французча ҳарбий ўзлашмалар ва уларнинг ўзбек тилида таржимаси масаласи	113
Попов Д.В. Феномен родного языка	114
Ражабов Ф.У. Поэтик ономастика ва поэтонимларнинг манбаларда талқини ва таҳлили	119
Рузиева М. Сурхон воҳаси дўдиларининг этномаданиятини ўрганилиш масалалари	121
Рузимбаев Х.С. Из истории узбекской фольклористики	123
Саиджанова З.К. Сўфига нисбат берилган манбалар	125
Сайфуллаев Б.Н. Ўзбек ва қозоқ тилларидаги фразеологизмларини қиёсий ўрганиш	128
Салойдинова Н.Ш. Инглиз, ўзбек ва рус тилларидаги архитектура-қурилиш терминларининг синхрон тадқиқи	131
Саминев А.И. Оксюморон компонентлари орасидаги синтактик ва функционал-семантик муносабатлар	133

Jonlantirish usuli ham badiiy tasvirda faol qatnashadi. Shoir ushbu usulda tabiatni jonlantiradi, barglarga qarsak chaldiradi, gullarni noz uyqusidan uyg'otadi, yulduzlarga qosh qoqtiradi, asosiy maqsad kitobxon dilini zavq-shavqqa g'arq qilish:

Sevgimiz madhin qilar qushlar chamanlarda yonib,
Chalsa qarsak bargi gul kezganda bo'ston ikkimiz.
 G'uncha gullar lab ochib, **uyg'ondi noz uyqusidan**,
 To'ti, qumri, andalib va biz chamanning orimiz.
 Bir chiqib Zuhro bulutdin, **kuldi qoqib qoshini**,
 G'amzasi qalbimda qoldi, qolmadi lek toqatim.
 ("Ko'ngil chiroyi", 72, 75, 143-betlar).

Ijodkor g'azallardagi voqea tasvirini jonlantirish orqali, matnning badiiy-estetik ta'sirchanligini ta'minlaydi. Kitobxon jonlantirish usuli orqali tabiat hodisalariga e'tibor qaratadi.

Matndagi tasvir uni o'z og'ushiga olib ardoqlaydi, qalbini junbishga keltiradi, o'simlik va qushlar olamiga mehr-muhabbat uyg'otadi.

She'rlardagi gradatsiya usulining klimaks va antiklimaks turlari mavjud bo'lib, birinchisi ko'tarilish, ikkinchisi pasayish ma'nosiga ega.

Qo'zi Davlat she'rlarida, asosan, birinchi tur ko'proq qo'llanilgan.

Shoir yor ta'rifini vasf qilar ekan, uning turli fazilatlarini bir-bir sanab yuqori cho'qqi sari intiladi:

Tishing dur, lablaring yoqut, beling qil orazing dur gul,
Qoshing yo, kipriging nashtar, go'yoki sochlaring sunbul.
 Quyidagi misralarda ham o'sha madhiyona usul qo'llanilgan:
 Tishlari **sadafim**, chashmi **charog'im**,
 So'zi to'ti **maqol**, shirin **asalim**.

Misralardagi go'zallik tavsifining tobora yuksalib borishi o'quvchida qiziqish uyg'otadi, tasvirning to'laonliligini ta'minlaydi. She'rdagi poetik ruhni kuchaytiradi, hissiy tuyg'ularni uyg'otib kishiga hayajon bag'ishlaydi.

Ijodkorning ayrim mungli she'rlarida gradatsiyaning antiklimaks turiga o'xshash holatlar ham ko'zga tashlanadi.

Qabog'ing uyma, qoshingni chimirma, lablaring burma,
 Ki husning vasfidin ojiz bo'lib qolgan qalamlardin.
 Ki g'oz qaddim kamon o'ldi tuganmas qayg'u g'amlardin.
 ("Ko'ngil chiroyi", 269, 142, 187-betlar).

G'azal mungli ohangda yozilgan bo'lib, unda lirik qahramonga oshiqning iltijolari bayon etilgan. Baytlardagi miskin tasvir yorga murojaatlarda oshiqning tobora hissiy pasayib borishidan darak beradi. Natijada gradatsiyaning antiklimaks usuliga o'xshash tasvir yuzaga kelgan.

Binobarin, shoir she'riyati badiiy tasvirga boy, leksik bo'yoqdorligi yuksak, lug'at zaxirasi rang-barang. Biz ushbu ishimizda she'rlar badiiyatining ayrim tomonlarigagina e'tibor qaratdik xolos. Kelgusida uni keng qamrovli tekshirish ob'ekti qilib olish rejamiz bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аристотель. Поэтика. – Т.: "Адабиёт ва санъат", 1980. – Б. 12.
2. Анвар Ходжахмедов. Шеърӣй санъатлар ва мумтоз кофия. – Т.: "Шарк" нашриёт-матбаа консерни. 1998. Б.160.
3. Қўзи Давлат. "Қўнгил чироӣи". – Т.: "Адабиёт ва санъат", 1999.
4. Каримова Ш. Эстетик идеал ва лирик тасвир. / "Ўзбек тили ва адабиёти", 2010, №5. –Б.70-72.
5. Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Т.: "O'zbekiston", 2019. – Б.165.
6. Раҳимжонов Н. Бадий сўз эстетикаси. – Т.: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2017. –Б.233.
7. Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърӣати. – Т.: "Адиб", 2012. – Б.303.

UO'K 575.1

JADID DAVRI LUG'ATCHILIGI SHAKLLANISHIDAGI IJTIMO'IY ZARURAT VA OMILLAR

S.Normamatov, f.f.d., ToshDO'TAU, Toshkent

Annotatsiya. Maqolada dastlab XIX asrning oxiri XX boshlaridagi o'zbek leksikografiyasining umumiy holatiga tavsif berilgan. Davr lug'atchiligi shakllanishidagi ijtimoiy ehtiyoj, davr lug'atchiligi manbalari, bir tilli va ko'p tilli tarjima lug'atlarining takomillashuv jarayoni, dastlabki terminologik va o'quv lug'atlarining yuzaga kelishi kabi masalalar tahlil qilingan. Bu davrda ijod qilgan jadid adiblarining lug'atchilik sohasidagi faoliyatlarini tadqiq qilish orqali ularning o'zbek lug'atchiligining shakllanishi va rivojlanishidagi xizmatlariga ilmiy baho berilgan. Bunda Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiriy, Elbek, Is'hoqxon Ibrat, Nazir To'raqulov kabi jadid ma'rifatparvarlari yaratgan filologik lug'atlarning yuzaga kelishidagi sosiolingvistik sharoit o'rganilgan. Yaratilgan lug'atlarning tuzilish tamoyillari, so'zlik tanlashdagi o'ziga xosliklar, ulardagi eksklyuziv va umumiy jihatlar ochib berilgan. Shuningdek, mazkur davrda yaratilgan lug'atlar tuzilish maqsadlari nuqtai nazaridan tasnif qilingan, lug'atlar so'zligi manbalari aniqlangan va ularning hozirgi o'zbek leksikografiyasi rivojidadagi ahamiyati ko'rsatilgan. Paxta qiyosiy tahlillar natijasida zamonaviy o'zbek zamonaviy leksikografiyasining asoslari aynan jadid ma'rifatparvarlari tomonidan yaratilganligi hamda ularning turkiy (o'zbek) lug'atchilikka zamonaviy leksikografik tamoyillarni olib kirganligiga oid ilmiy asoslangan xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar. lug'atshunoslik, lug'at tarkibi, lug'at-grammatika, umumxalq tili, leksik-semantik tizim, leksikografik tamoyil, ilmiy istiloh, terminologik tizim, grammatik tavsif, morfem struktura, leksikografik belgi, etimologiya.

Аннотация. В статье в начале описывается общее состояние узбекской лексикографии конца XIX и начала XX веков. В ней проанализированы такие вопросы, как социальная потребность в развитии периодической лексикографии, источники периодической лексикографии, процесс совершенствования моновязычных и полиязычных переводных словарей, появление первоначальных терминологических и учебных словарей. Посредством изучения деятельности джадидских мастеров пера в области лексикографии дана научная оценка их вкладу в становлении и развитии узбекской лексикографии. При этом изучены социолингвистические обстоятельства, способствовавшие появлению филологических словарей, созданных такими джадидистскими просветителями, как Абдулла Кадыри, Абдурауф Фитрат, Ашурали Зохири, Элбек, Исхақхон Ибраћ, Назир Турақулов. В ней раскрыты принципы построения созданных словарей, специфические особенности выбора словаря, их эксклюзивный и общий аспекты. Кроме того, классифицированы созданные в этот период словари с точки зрения целей их составления, определены источники словарей по их типологии, а также показано их значение в развитии современной узбекской лексикографии. По результатам тщательного сравнительного анализа, сделаны научно обоснованные выводы о создании основ современной узбекской лексикографии именно джадидами-просветителями, прокладывавших путь в привнесение современных лексикографических принципов в тюркскую (узбекскую) лексикографию.

Ключевые слова: Общетюркский язык, пантюркизм, пуризм, публицистический стиль, лексико-семантическая норма, лексикографический элемент, лексический фонд, грамматический строй, опорный диалект, сингармонизм

Abstract. Initially the article describes the general state of the Uzbek lexicography of the late 19th and early 20th centuries. It analyses the issues like a social need for the development of periodic lexicography, sources of periodic lexicography, process of improving monolingual and multilingual translation dictionaries, emergence of initial terminological and educational dictionaries. By studying the activities of enlightened Jadids in the field of lexicography, a scientific assessment is given for their contribution to formation and development of the Uzbek lexicography. At the same time, sociolinguistic circumstances that contributed to the emergence of philological dictionaries created by such Jadid enlighteners as Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Ashurali Zohiri, Elbek, Is'hoqhon Ibrat, Nazir Turakulov were studied. It discloses the principles of dictionary development, specific features of the choice of words, their exclusive and general aspects. In addition, the dictionaries created during this period are classified in terms of purposes of their compilation, sources of dictionaries are determined by their typology, and their importance in development of modern Uzbek lexicography has been illustrated. As a result of thorough comparative analysis, scientifically based conclusions have been put forward on creation of the foundations of modern Uzbek lexicography by enlightened Jadids themselves, who paved the way for introducing modern lexicographic principles into Turkic (Uzbek) lexicography.

Key words. lexicography, lexical structure, lexico-grammar, vernacular language, lexico-semantic system, lexicographic tendency, scientific interpretation, terminological system, grammatical characteristic, morpheme structure, lexicographic sign, etymology.

Jadid ma'rifatparvarlarining ona tiliga munosabati, o'zbek milliy va adabiy tilining rivojlanishi, takomili yo'lidagi amaliy harakatlari vatanparvarlikning oliy namunasi bo'lib, ularning o'zbek adabiy tilining leksik, grammatik, imloviy me'yorlashuvi, hozirgi darajaga kelishidagi xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Ayni paytda o'zbek zamonaviy leksikografiyasi rivojiga ham jadid ziyolilari salmoqli hissa qo'shishgan, ular tomonidan yaratilgan tarjima, o'quv lug'atlari ilk lingvistik lug'at namunalaridir. Ular tomonidan yaratilgan lug'atlar mazkur davr ijtimoiy hayotining zaruriyati sifatida yuzaga kelgan.

Sho'ro mafkurasi hukmronligi yillarida o'zbek tilshunosligining bu davrdagi holati tadqiqi chetlab o'tildi, yoki yuzaki, bir tomonlama o'rganildi. Mustaqillikdan keyingi yillarda mazkur davr tili va tilshunosligi, xususan, Behbudiy, Avloniy, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Miyon Buzruk, Elbek, Ashurali Zohiriylarning badiiy asarlari tili va til haqidagi qarashlarining keng ko'lamda o'rganilayotgani bu borada olib borilayotgan ishlarning ulkan samarasidir. Tadqiqotlarda jadidchilik harakati vakillari yaratgan badiiy asarlarning tili, ularning davr adabiy tili rivojiga qo'shgan hissasi hamda ularning til va tilshunoslikka oid qarashlari alohida-alohida monografik planda, ya'ni adiblarning ilmiy merosi, badiiy mahorati, aniqrog'i, tildagi badiiy tasvir vositalaridan qay darajada foydalana olganliklari nuqtayi nazaridan ma'lum darajada o'rganildi. Bu holat 20-30-yillar tilshunosligi, shu jumladan, leksikografik ishlari to'liq o'rganilgan degan xulosa qilishga imkon bermaydi. Ularda davr leksikografiyasi masalalari tizimli o'rganilgan emas.

O'zbek leksikografiyasi tarixida jadidchilik davrigacha, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrdagi lug'atchilikda asosan "izohli lug'atlar" tuzish, shuningdek, Alisher Navoiy asarlarini tushunishni ta'minlash va yangi shakllanayotgan eski o'zbek adabiy tilini targ'ib qilish, uning o'ziga xos jihatlarini ommaga singdirish, shakllanayotgan tilning takomillashuviga yordam berishga xizmat qiluvchi lug'atlarni yaratish yetakchilik qilgani kuzatiladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa yuqoridagi holatdan farqli o'laroq lug'atchilikda yangi yo'nalishlarning paydo bo'lganligi, lug'at tartib berishdagi yangicha yondashuvlarning yuzaga kelganligi va yangicha tipdagi lug'atlarning yaratilganligi ancha e'tiborni tortadi. Ma'rifatparvar jadid adiblari o'zbek milliy uyg'onish

adabiyotidagi badiiy, ilmiy, publisistik asarlari qatorida o'zbek leksikografiyasi, ya'ni lug'atchiligiining shakllanishi va taraqqiyotida ham o'z o'rinlariga ega bo'lishgan. Ular yaratgan badiiy asarlar tili hozirgi o'zbek adabiy tilining shakllanishi va takomilida qanchalik muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, ular tomonidan yaratilgan lug'atlar hamda ilgari surilgan tilshunoslikka oid qarashlar ham o'zbek ilmiy tilshunosligining, qolaversa, o'zbek lug'atchiligiining shakllanishi va taraqqiyotida muhim rol o'ynagan.

O'zbek leksikografiyasi tarixida alohida o'rinni ishg'ol qiluvchi mazkur davr lug'atchiligi jamiyatdagi o'ziga xos ijtimoiy ehtiyoj va omillar, zaruriyat tufayli yuzaga kelgan edi. Bu jarayonni quyidagicha tavsiflash mumkin:

1) XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan Chor Rossiyasining O'rta Osiyodagi mustamlaka siyosati mahalliy turkiy xalqlarning tili, madaniyati va etnografiyasini o'rganish, ular orasiga "suqilib kirish", kuzatuv ishlarini olib borish ehtiyojini yuzaga keltirdi va bu ehtiyoj "ruscha-o'zbekcha", "o'zbekcha-ruscha" xarakteridagi, ya'ni o'zaro muloqotni amalga oshirishni ta'minlovchi lug'atlarning yaratilishiga zamin bo'ldi. Bunday lug'atlarning dastlabkilari rus ziyolilari, davlat xizmati vakillari tomonidan yaratildi va ular sirasiga A.Starchevskiyning "Perevodchik s russkogo yazika na sartovskiy" (1878) lug'atini, S.Lapinning "Russko-uzbekskiy slovar" (1984) lug'atini, V.P.Nalivkin va M.Nalivkinalarning "Russko-sartovskiy i sartovsko-russkiy slovar" (1884-1912) kabi lug'atlarini kiritish mumkin. Jadid ziyolilari ham inqilobni qo'llab-quvvatlash va ikkilanishlar davrida (dastlabki davr) mamlakat taraqqiyotini, millat ravnaqini o'ylab, barcha sohani tiklashni, har sohada dunyo hamjamiyati qatoriga ko'tarilishni nazarda tutib, ommaning ong, ilm darajasini, ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida rus tilini o'rganish, ular bilan erkin muloqotni ta'minlash kabi maqsadlarni nazarda tutgan holda "ruscha-o'zbekcha" yoki "o'zbekcha-ruscha" xarakteridagi ikki tilli tarjima lug'atlari ustida ish olib borishdi. Bu ishni dastlab zamonasining ilg'or ziyolisi sifatida Ashurali Zohiriy o'zining "Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at" [1,357] ini yaratish bilan boshlab bergan bo'lsa, keyinchalik Abdulla Qodiriy hammualliflikdagi "Ruscha-o'zbekcha to'la so'zlik" [2,416] lug'ati bilan davom ettirdi. Bu lug'atlarni bungacha rus turkolog olimlari, rus davlat xizmati vakillari va boshqa turkiy xalqlar leksikografiyasida yaratilgan tarjima lug'atlari bilan qiyoslar ekanmiz, mualliflar lug'at tartib berishda ulardan farqli o'laroq o'zbek tilining milliy xususiyatlarini, shakllanayotgan yangi o'zbek adabiy tilining leksik, grammatik me'yorlarini e'tiborga olgan holda jonli xalq tilidan ko'plab so'z va iboralarni kiritishganligi e'tiborni tortadi. Shuningdek, mazkur davrda ikki tilli tarjima lug'atlarining jadid adiblari faoliyati ta'sirida takomillashib borish jarayonini tarjimada berilgan so'zlikning miqdori, undagi izohlarning tushunarlik darajasi hamda hozirgi ikki tilli tarjima lug'atlariga xos bo'lgan leksikografik ishoralardan samarali foydalanganlik nuqtai nazaridan baholash mumkin. Bu esa, o'z-o'zidan, mazkur davrda ikki tilli, xususan, ruscha-o'zbekcha tarjima lug'atlarining o'zbek ziyolisi muallifligi ostida yaratilganlarining dastlabkisi jadid ma'rifatparvarlariga tegishli ekanligini hamda ikki tilli tarjima lug'atlarining rivojlanish bosqichlarida jadid adiblarining ham munosib o'rni borligini ko'rsatadi;

2) Davr tili holati ham jadid lug'atchiligi shakllanishi uchun katta ijtimoiy ehtiyojni hozirlagan edi. XIX asrning oxiri XX asr boshlarida shakllanayotgan hozirgi o'zbek adabiy tilining rivojlanish tendentsiyalarida ob'ektiv va sub'ektiv omillar aralashib ketgan edi. Bir tomondan, yozma matnlarda eski o'zbek adabiy tili qoliplari asosida ish ko'rildirdi. Shuningdek, adabiy til jonli tildan qulaylik va tushunarlik darajasi nuqtayi nazaridan ancha orqada qolgan bo'lib, to'la-to'kis "xoslar" nutqi tusini olgan edi. Ikkinchi tomondan, tilga innovatsion yondashuv bir necha yo'nalishda rivojlanar edi. Bir toifa ziyolilar turkiy tillarning rivojlangan o'g'uz lahjasiga taqlid qilib, nutqlarida o'g'uzcha unsurlarni ishlatishni zamonaviylik belgisi sifatida anglashsa, ikkinchi bir toifa ziyolilar rus tiliga ergashish, leksikonida ruscha ifodalarga ruju qo'yish yo'lidano borar edi. Yana bir boshqa bir toifa vakillari esa tilning xalqchilligi tamoyiliga ustuvorlik berib, jonli xalq tiliga tayanib, xalq ichiga yurish qilar edi. Bunda ham muammoning yechimiga o'zbek tilining ko'p lahjaliligi va ko'p shevaliligi putur yetkazar edi.

XX asrning 20-30 yillarida o'zbek tili so'z xazinasini boyitish, tilni ichki imkoniyatlari asosida rivojlantirish, milliy adabiy tilni yaratish yo'lida "Chig'atoy gurungi" jamiyati faol ish olib boradi. Jamiyat faollari mazkur ijtimoiy zaruriyat va ehtiyoj talablaridan kelib chiqib, leksikografiya sohasida ham mukammal lug'atlar yaratish ishiga bel bog'lashadi. Elbekning "Lug'at va atamalar", "O'zbekcha shakldosh so'zlar lug'ati" hamda "O'zbek to'la so'zligiga materiallar" nomli lug'atlari shular jumlasidandir;

3) Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmida sharqshunoslik va turkiyshunoslik fanlarining taraqqiy etishi davr lug'atchiligi rivojiga ijtimoiy omil sifatida o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu ta'sir an'anaviy lug'atchilik bilan bir qatorda yangicha yo'nalishdagi ruscha-o'zbekcha va o'zbekcha-ruscha, shuningdek, o'zbek tilini boshqa yevropa va xorijiy sharq tillari bilan qiyoslab o'rganishga mo'ljallangan lug'atlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni yuzaga keltirdi. Jadid vakillarining yetakchilaridan bo'lgan Ishoqxon Ibratning "Lug'oti sitta alsina" (olti tilli lug'at) [3,54] asarini ana shunday ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan lug'atlar sirasida keltirishimiz mumkin. Lug'at mazmun-mohiyati bilan o'sha davrdagi yangicha yo'nalishdagi, ya'ni g'arb lug'atchiligi an'analari ta'sirida yaratilgan.

Is'hoqxon Ibrat milliy adabiyotimizda jadidchilik namoyandasi sifatida e'tirof etiladi. Davr nuqtai nazaridan baho beradigan bo'lsak, jadid davri adabiyoti o'zbek adabiyotshunosligida an'anaviy mumtoz badiiy adabiyotidan yangi o'zbek adabiyotiga, o'zbek tilshunosligida esa eski o'zbek tilidan XX asrda shakllangan yangi o'zbek adabiy tiliga o'tish davriga, ya'ni an'ana va yangilik kesishgan nuqtada, oraliq maydonda yuzaga kelgan adabiyotdir. Bunda nafaqat badiiy adabiyot namunalarida, balki leksikografiyaga oid mavjud lug'atlarda ham ana shu oraliq holat ikki rivojlanish nuqtani birlashtirish vazifasini bajarganligini va har ikki nuqtaning belgilarini o'zida namoyon qilganligini ko'ramiz. Garchi, yangicha g'oya, yangicha tafakkur, yangicha bilim olish tarafdorlari bo'lgan ilg'or jadid ma'rifatparvarlari qatorida bo'lsa-da, Is'hoqxon "Lug'oti sitta alsina" asarini yaratishda yangicha yo'nalishdagi g'arb lug'atchiligi tamoyillari bilan birga, an'anaviy sharq lug'atchiligi prinsiplariga ham tayangan holda lug'at tuzganligining guvohi bo'lamiz. Lug'at muallifning o'zi ta'kidlaganidek, o'sha davrda "safar ahli" (sayohatchilar)

manfaatini ko'zlagan holda tuzilgan so'zlashgich bo'lsa-da, lingvistik manba sifida o'sha davrda sharq va g'arb lug'atchiligi tamoyillarini o'zida mujassamlashtirgan, o'z xalqini jahon mamlakatlaridagi madaniy hayot, ilg'or fan va texnika yutuqlari, yangiliklari bilan tanishtirish barobarida xorijiy tillarni ham egallashga da'vat etgan, o'zbek lug'atchiligining tadrijiy takomilida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan leksikografik asardir;

4) XX asrning 20-yillarida o'zbek adabiyoti, o'zbek tili va tilshunosligida ro'y bergan o'zgarishlar mazkur davrdagi ijtimoiy, siyosiy, adabiy va madaniy hayotdagi yangilanishlar, o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur davrda sotsial hayotdagi o'zgarishlar bevosita tilning sohasiga, xususan, terminologiya sohasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Maktab va maorif sohasidagi yangicha islohotlar, xorijiy mamlakatlar bilan savdo aloqalarining rivojlanishi, fan va sanoat sohasidagi ijobiy siljishlar o'zbek tili lug'at fondida yangi so'z va terminlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Shuningdek, bu davrda fan asoslarini, xususan, iqtisod va siyosatdagi yangiliklar bilan tanishishda rus tilining yetakchi o'rin tutishi shu tildagi terminlarning tarjimasini lug'atlar shaklida berish ehtiyojini keltirib chiqardi. Shunga binoan, ijtimoiy-siyosiy terminlarning maxsus ikki tilli tarjima lug'atlarini yaratish yo'lidagi leksikografik ishlar amalga oshirila boshlandi va N.To'raqulovning "Rus-o'zbek tilining siyosiy va iqtisodiy lug'atchasi" [4,87] bu yo'nalishdagi dastlabki ish ekanligi bilan xarakterlidir. Lug'atning ijtimoiy-siyosiy terminologik tizim, umuman, o'zbek lug'atshunosligida o'ziga xos o'rni bor. Lug'at asosida mazkur davrda qanday terminlarning qo'llanilganligi, ularning ma'nolari, ma'no o'zgarishi, yangilanish hamda eskirish jarayonlari haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. Lug'at soha terminlari to'plangan ilk lug'at bo'lganligi uchun kamchiliklardan holi emas. Biroq soha terminlarini tartibga solishda, shuningdek, nafaqat shu sohaning, balki boshqa soha terminologik lug'atlarini yaratishda namuna sifatida o'zbek leksikografiyasi tarixida muhim ahamiyatga ega;

5) Ijtimoiy-siyosiy mummolar bilan bir qatorda ta'lim-tarbiya, maktab va maorif masalalarini ham yangidan isloh qilish kun tartibida turgan mazkur davrda ta'limiy adabiyot tilini soddalashtirish, jonli xalq tiliga yaqinlashtirish, maktab darsliklari va o'quv adabiyotlarini zamon talablariga moslash ehtiyoji yuzaga keladi. Maha shu ehtiyoj talablaridan kelib chiqib, davr lug'atchiligida aynan maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan darslik va qo'llanmalarga yordamchi vosita sifatida o'quv lug'atlari yaratiladi. Jumladan, 1925-yilda rus olimi V.Brilev tomonidan "Shokirjon Rahimiyning "Kattalar yo'ldoshi" darsligi uchun ruscha-o'zbekcha lug'at" [5,46] nomi ostida nashr etilgan lug'at ham yangicha yo'nalishda yaratilgan lug'at ekanligi bilan e'tiborni tortadi. Lug'at, garchi, tarjima lug'ati sifatida nomlangan bo'lsa-da, o'sha davrda umumfilologik xarakterda yaratilgan boshqa o'zbekcha-ruscha, ruscha-o'zbekcha tarjima lug'atlaridan o'z maqsadi nuqtai nazaridan tubdan farq qiladi. Chunki lug'at o'zbek yoki rus tilini o'rganuvchilar uchun tuzilgan oddiy so'zlashgich emas, balki unda asosan ta'limiy maqsadning ustuvorligi nazarda tutilgan. Lug'atga jadidchilik davridagi o'zbek pedagogik tizimida ta'limning yordamchi vositalari silsilasini yaratish tendensiyasini boshlab bergan ilk ishlardan biri sifatida qarash mumkin. Chunki mazkur lug'at so'zligi to'g'ridan-to'g'ri jadid adibi Shokirjon Rahimiyning "Kattalar yo'ldoshi" darsligi asosida alfavit tarzida tuzilmay, mavzulashtirilgan holda, ya'ni har bir yangi mavzu yakunida tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni alfavit tartibidagi tarjimasini o'z ichiga olgan. Bu esa lug'atning o'sha davrda darslik mavzularini o'zlashtirishda yordamchi vosita sifatida darslikka moslashtirilgan, o'quv jarayoni bilan aloqador ilk o'quv lug'ati ekanligini belgilaydi. Demak, o'zbek lug'atchiligining jadidchilik davridagi taraqqiyotida shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, bu davrda yaratilgan umumfilologik xarakterdagi turli tarjima lug'atlari qatorida maorifdagi yangicha o'qitish tizimida ta'limiy ehtiyoj tufayli o'quv lug'atlarining ham yaratilganligi va shu asosda o'quv lug'atchiligining shakllana boshlaganligi davr lug'atchiligining muhim belgilaridan birini o'zida mujassamlashtiradi.

Keltirilganlardan tashqari, davr lug'atchiligi shakllanishiga qorishiq holatga tushib borayotgan o'zbek tili leksikasini me'yorlashtirish ehtiyoji, shu bilan birga, O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi natijasida kirib kelgan rus tilini egallash zarurati, kapitalizmning O'rta Osiyoda oyoqqa turayotganligi natijasida sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga xizmat qiladigan o'zbek adabiy tilini shakllantirish va uning ta'limini yo'lga qo'yishdan iborat davr talabi ham sabab bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, jadid adiblarining lug'atchilik sohasidagi faoliyati, ular yaratgan lug'atlarning keyingi davr lug'atchiligi taraqqiyotiga bevosita ta'sirini quyidagicha umumlashtirish mumkin: o'zbek lug'atchiligi tarixida siyosiy-huquqiy mavzudagi ilk terminologik ruscha-o'zbekcha tarjima lug'ati jadidlar tomonidan yaratildi, bu lug'at keyingi davrda yaratilgan shu tipdagi lug'atlar uchun asosiy manba vazifasini o'tadi; "Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at" yaratish ishlari ham jadidlar vakillari tomonidan amalga oshirildi va bu lug'atlar keyingi yillarda tuzilgan katta hajmdagi "Ruscha-o'zbekcha", "O'zbekcha-ruscha" tarjima lug'atlari yaratilishi uchun asos bo'ldi; Elbek tomonidan tuzilgan "O'zbekcha shakldosh so'zlar lug'ati" keyingi davrlarda yaratilgan "O'zbek tili sinonimlari lug'ati", "O'zbek tilining omonimlar lug'ati", "O'zbek tilining antonimlar lug'ati", "O'zbek tilining paronimlar lug'ati" kabi ko'plab maxsus lug'atlarning yaratilishi uchun manba bo'lib xizmat qildi; Is'hoqxon Ibrat tomonidan yaratilgan "Lug'oti sitta al-sina" asarini o'zbek leksikografiyasidagi ko'p tilli tarjima lug'atlarining ilk namunasi, deyish mumkin; Abdurauf Fitratning "Devonu lug'atit turk" asari uchun tuzgan "Fihrist"ini o'zbek lug'atchiligidagi ilk "Indeks-lug'at", deb baholash mumkin; V.Brilevning "Shokirjon Rahimiyning "Kattalar yo'ldoshi" darsligi uchun o'zbekcha-ruscha lug'at"i jadidchilik davrida yaratilgan dastlabki o'quv lug'atlaridan biridir.

Aytish mumkinki, jadid namoyondalarining amaliy lingvistik faoliyati o'zbek leksikografiyasini yangi sifat bosqichiga ko'tardi. Bu davrda yaratilgan lug'atlar, birinchidan, o'zida tarix va davrni uyg'unlashtirgani bilan xarakterlanadi. Ularda klassik Sharq va zamonaviy G'arb leksikografik amaliyoti uyg'unlashib ketganligini ko'ramiz. Ikkinchidan, asosan, badiiy asar tilini tushunish uchun xizmat qilgan o'zbek mumtoz lug'atlaridan farqli ravishda jadid lug'atlari ko'proq til o'rgatish va til ta'limi muammolari bilan bog'landi. Jadid namoyondalarining lug'atlari o'zbek zamonaviy lug'atchiligining keyingi taraqqiyoti uchun poydevor vazifasini o'tadi.

O'zbek lug'atchiligining keyingi davr taraqqiyoti XX asrning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyoti ta'sirida ilmiy tilshunoslikning shakllanishi va rivoji, davr ehtiyoji, tilga munosabat (til siyosati) masalalari bilan bog'liq holda davom etmoqda. Bunda jadid vakillarining ham munosib o'rni bor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zohiriy A. Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at, 2 jildlik. – Toshkent-Samarqand, 1927. – 357 b.
2. Qodiriy A., Rahmatiy S. "Ruscha-o'zbekcha mukammal lug'at", 2-jild. – Toshkent-Qozon, 1934. – 416 b.
3. Is'hoqxon Ibrat. "Lug'oti sitta al sina". – Toshkent, Ilin tipografiyasi, 1901. – 54 b.
4. To'raqulov N. Rus-o'zbek tilining siyosiy va iqtisodiy lug'atchasi. – Turkiston jumhuriyatining davlat nashriyoti, Toshkent 1922. – 87 b.
5. Brilev V. Shokirjon Rahimiyning "Kattalar yo'ldoshi" darsligi uchun ruscha-o'zbekcha lug'at. – M., 1925. – 46 b.

UDC 81-13

SOCIO-CULTURAL FACILITIES OF THE «BURHONI QOTE»

Z.H. Nurullayeva, teacher, Samarqand State University, Samarqand

Annotatsiya. Maqolada "Burhon qo'ti"ning ijtimoiy-madaniy zamini va lug'atshunos olimlarning tadqiqotlariga yondashuvi haqida ma'lumotlar berilgan. Forscha so'zlar va ularni izohlash usullari hamda manbalari va ilmiy manbalari sanab o'tilgan.

Kalit so'zlar: iqtibos, madaniyat, lug'atlar, fors tili, lug'at, muallif, til, sharh, tadqiqot

Аннотация. В статье представлена информация о социокультурном происхождении Бурхана Коти и его подходе к исследованиям лексикографов. Перечислены персидские слова и их толкование, а также источники и научные источники

Ключевые слова: цитата, культура, словари, персидский язык, лексика, автор, язык, комментарий, исследование

Abstract. The article provides information about the socio-cultural background of Burkhan Koti and his approach to the research of lexicographers. Persian words and their interpretation are listed, as well as sources and scientific sources

Keywords: quotation, culture, dictionaries, Persian language, vocabulary, author, language, commentary, research.

In the history of Tajik and Persian culture we can see cultures that have a special place in linguistics due to their peculiarities. The arrival of any culture from the XII-XIII centuries is still unknown, but from the XIV-XV centuries, especially from the XVI-XVII centuries, many cultures are known, which testify to the rapid development of Tajik and Persian culture. Iranian researchers Said Nafisi, Muhammad Muin, Shahriyari Naqavi, European scholars H. Blochman, K.R. Zaleman, S.I. Baevsky, Tajik researchers A.V. Kapranov, Rahim Hashim, A. Sanginov contributed to the study of Tajik and Persian lexicography, T. Zehni, H. Raufov, T. Shokirov, A. Husenzoda, A. Nurov, A. Vohidov, H. Ahadov, A. Otakhonova, Saifiddin Nazarzoda, Said Karimov, Mirzo Hasan Sulton Uzbek scientists H. Muhiddinov, N. Husanov, and others are great. They have made a valuable contribution to the quantification of past cultures, the critical publication of the best examples of this precious heritage to the present day, and the editing and editing of today's cultures.

One of the most significant results of research in this area is that the list of previous dictionaries is becoming more complete. For example, Zaleman's special reference book, compiled in 1887, lists 160 cultures, while Saeed Nafisi's list, published in 1951, increases the number to 202 [3, 372-375]. In his dissertation, Amon Vohidov provides relatively complete information about 36 famous ancient cultures, defining the structure of each culture, its order, their literary materials (documents) and their place in the history of Tajik and Persian culture as much as possible [10, 139].

It should be noted that the fundamental research of VA Kapranov on the culture of India in the XVI-XIX centuries is of particular importance. In this study, Kapranov discusses the reasons for the spread of Persian-Tajik language in India (especially in the north), Indian Persian culture, their lexical features, quotations of Hindi in Persian and their reflection in Indian school cultures, the main trends in Indian Indian culture. irrefutably analyzed and researched [5, 221].

Although the publication of Persian literature in India and Pakistan began in the XI-XII centuries, but especially during the reign of the Timurid dynasty of India, it developed rapidly.

In particular, during the reign of the Timurids of India, in order to perpetuate the achievements and splendor of their state, they invited scholars and artists from Central Asia, Afghanistan, Iran, created favorable conditions for them and set appropriate salaries and gifts. Sheikh Abulfazl ibn Mubarak in his work "Mirror of Akbari" states that in the time of Akbar the king (d. 1605) there were 60 Persian-speaking poets [8, 13]. Akbar was the first king of India to be appointed Malikushwaari for a talented and prominent council, and Ghazali Mashhadi (d. 1673) was appointed to the court. Akbar was the first king of India to be appointed Malikushwaari for a talented and prominent council, and Ghazali Mashhadi (d. 1673) was appointed to the court.

Abulfazl, as an initiator, wrote a dictionary of the Dari language and encouraged his modern scholars to compile detailed dictionaries of the ancient and rich Persian language. Maliktushua is written by Muhammadtaki Bahor in "Sabkshinosi": "Abulfazl is the oldest person who tried to understand the Dari dictionary and wrote a dictionary in Persian. He was a native of India and a native of India. He left a Dari dictionary, so he created a culture" [7, 290].